



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



---

## THE HARMONY OF EDUCATION AND UPBRINGING IN THE PROCESS OF IMPARTING KNOWLEDGE TO STUDENTS

Muhammadjonova Farangizbegim Ma'mirjon qizi<sup>1</sup>

*Fergana State University*

---

### KEYWORDS

educational process,  
educational process, social  
relations, communication with  
students, educational material,  
teacher's activity

---

### ABSTRACT

Science, education and training are the power that makes the nation great and the country powerful, which is the cornerstone of development.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.11358544**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Student, Fergana State University, Uzbekistan

## O'QUVCHILARGA BILIM BERISH JARAYONIDA TA'LIM VA TARBIYANING UYG'UNLIGI

### KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Ta'lim jarayoni, tarbiya jarayoni, ijtimoiy munosabatlar, o'quvchilar bilan muloqot, o'quv materiallari, o'qituvchi faoliyati

### ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Taraqqiyotning tamal toshi hisoblanadigan, millatni buyuk, mamlakatni qudratli qiladigan kuch aynan ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Ta'lim-„o'qitish“ degan ma'noni anglatadi. Ta'lim bu- malaka hamda ko'nikmalarni hosil qilish jarayonidir. Ta'lim jarayonida inson o'zi uchun yangi bilimlarni oladi, o'zida bor ma'lumotlarni qaytatdan mustahkamlaydi. Insonlarni mehnat faoliyatiga va eng asosiysi ularni hayotga tayyorlashda ta'limning o'rni juda ham kattadir. Ta'lim jarayonida muloqot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Taraqqiyotning rivojlanib borishiga qarab, insonlarning ijtimoiy munosabatiga qarab, ularning umumiy ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlariga va ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab ta'limning mazmun –mohiyati, tashkiliy shakli hamda metodi o'zgarib boradi. Ta'lim- jamiyat qurulishining muhim muammolarini hal qilish, jamiyatning moddiy va texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi. Ta'lim- tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Ta'limga ikki tomonlama aloqa (ta'lim olish va ta'lim berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Ta'lim shuningdek, o'ziga hos xususiyatlarga ham ega. Ta'lim o'qituvchi tomonidan boshqariluvchi o'ziga xos anglash jarayonidir. Ta'lim o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. U o'quvchilarga o'quv materiallari mazmunini tushuntirib beradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'irlaydi, qanday ishlash lozimligini qayta ko'rsatadi. Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish, o'quvchining o'rganishiga yo'naltirilgan faoliyati, boshqacha aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi. So'nggi o'n yillikda ta'limni insonparvarlashtirish g'oyasi nuqtai nazaridan ta'limning mohiyatini aniqlashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tobora kengayib bormoqda. Jumladan, V.V.Krayevskiy, I.Ya.Larner, M.N.Skatkin, M.Ochilov, F.R.Yuzlikayev va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ta'lim mazmuni deganda bilim, ko'nikma, ijodiy faoliyat tajribasi va hissiy-irodaviy munosabat tajribasining pedagogik jihatdan moslashtirilgan tizmi tushunliadi, ularning o'zlashrirlilishi har tomonlama barkamol rivojlangan shaxsni shakillantirishni ta'minlash uchun mo'ljallangan. Ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida albatta muloqot yuzaga keladi. Ta'lim o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish

asosida ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, ularda amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, dunyoqarashni shakillantirishga yo'naltirilgan jarayondir. Hozirgi sharoitda o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ta'lim mazmuni (o'quv rejalarni) ishlab chiqishda ta'lim mazmunida quyidagi g'oyalar yetakchi o'rin tutadi:

1. insonparvarlashtirish;
2. integratsiya;
3. standartlashtirish;
4. ko'p bosqichlilik;
5. axborotlashtirish ;
6. individuallashtirish ;
7. ketma-ketlik;

„Tarbiya “ so'zi arabcha „robba“fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar „tarbiya“ ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: „Tarbiya bir insonni asta-sekin kamoliga yetkazishdir“. Rog'ib Asfixoniy esa tarbiyaga quyidagicha ta'rif beradi: „Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat ila o'stirishdir“. Tarbiya-insonning xatti-xarakatlari, xulq-atvori, odoblari majmuyidir. Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakillantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Tarbiya barcha jamiyat, har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu kishining bir-biriga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Barkamol, erkin fikrlaydigan shaxsni shakillantirish zamonaviy demokratik jamiyatda tarbiyaning eng muhim maqsadidir. O'qituvchining faoliyati o'sib borayotgan shaxsni shakillantirishga qaratilgan. Shaxsning har tomonlama rivojlanishi jamiyatning tarbiya maqsadini belgilaydigan talablarini to'liq aks ettirishi sharti bilan amalga oshiriladi. Tarbiya maqsadlarida ma'lum bir ideal ifodalanadi, shaxsga qo'yiladigan talablar shakillantiriladi. Pedagogika tarixida tarbiyaning turli maqsadlari mavjud. Barkamol, erkin fikrlaydigan shaxsni shakillantirish zamonaviy demokratik jamiyatda tarbiyaning maqsadidir. Aslida, pedagogika asosini tarbiya tashkil etadi. „Tarbiya-keksa avold tarbiyasini yoshlarga o'tkazish “; „Tarbiya-bu bolalar faoliyati va muloqotini tashkil etish“; „Tarbiya-bolalar va yoshlarni ijtimoiy hayot talablariga ko'niktirish“.

Zamonaviy sharoitda tarbiya jarayoni quyidagilarga qaratilgan: shaxsni barkamol rivojlantirish maqsadini hisobga olgan holda shaxsni yaxlit shakillantirish: umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida axloqiy fazilatlarni shakillantirish; fan, madaniyat, san'at sohasidagi ijtimoiy qadriyatlar bilan tanishtirish; jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarga mos keladigan hayotiy pozitsiyani tarbiyalash; shaxsning moyilligi, qobiliyati va qiziqishlarini rivojlantirish; shaxsning eng muhim ijtimoiy funksiyasini rivojlantirish-muloqot va boshqalar. Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning eng muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir. Va ya'na bir tarbiya jarayonini o'ziga xos

xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yoki yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida, turlituman qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiya shaxs ongi, dunyoqarashini shakillantirishda muhim o'rin tutadi. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaroroq bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini talab etadi. Tarbiya ham o'z ichida bir necha turlarga bo'linadi:

- 1) Aqliy tarbiya ;
- 2) Jismoniy tabiya ;
- 3) Axloqiy tarbiya;
- 4) Iqtisodiy tarbiya ;
- 5) Mehnat tarbiyasi;
- 6) Estetik tarbiya;
- 7) Ekologik tarbiya;

Aqliy tarbiya- ta'lim oluvchilarning fan asoslariga oid bilimlar tizimi bilan qurollantiradi

Jismoniy tarbiya-deyarli butun tarbiya tizmining ajralmas tarkibiy qismidir.

Axloqiy tarbiya- ijtimoiy ong shakillaridan biri bo'lib, insonlarning o'zi do'st-birodarlari, jamoa a'zolari va tabiatga bo'lgan munosabatlarni tartibga solib turuvchi xulq-odob qonun-qoidalarning majmui.

Iqtisodiy tarbiya- tashkil etilgan pedagogik faoliyat, o'quvchilarning iqtisodiy ongini shakillantirishga qaratilgan maxsus o'ylangan ish tizmi.

Mehnat tarbiyasi- inson kamolotining asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi.

Estetik tarbiya – yun.his qiluvchi, hissiy tarbiyaga oid degan ma'noni ifodalaydi.

Ekologik tarbiya- ekologik ong o'z ichiga ekologik bilimlarni; hayvonlar va o'simliklar dunyosida, shuningdek, ularning yashash muhitida va umuman atrof-muhitida sodir bo'ladigan munosabatlar va almashinuvlar haqidagi faktlar, ma'lumotlar, xulosala , umumlashmalarni o'z ichiga oladi.

Biz tarbiyani avval oiladan, o'quv maskanlaridan, atrof-muhitdan olamiz. Shunday ekan, biz ana shu dargohda yaxshi tarbiya olishimiz va uni atrof –muhitga tarqata olishimiz kerak. Tarbiya insonni insoniyligini belgilab beruvchi asosiy omillardandir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiya o'zaro uzviy bog'liqdir. Shaxs ta'limsiz ham, tarbiyasiz ham o'sib, yuksala olmaydi. Har bir o'quvchiga ta'lim berishdan avval u o'quvchida tarbiyani yaxshi shakillantirib olishimiz kerak bo'ladi. Chunki, tarbiyasi yaxshi bo'lmagan o'quvchilarga ta'lim berish o'ta murakkab va samarasizdir. O'quvchilarning tarbiyasini yaxshilash uchun avvalo uning oilviy muhitini yaxshilab o'rganish va uning ota-

onasi bilan hamkorlikda ishlash kerak bo'ladi. Tarbiyasi yaxshi bo'lgan o'quvchilarga ta'lim berish o'qituvchi uchun ham murakkablik tug'dirmaydi va samarali natija ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y.U.Egamberdiyeva Boshlang'ich sinf o'quvchilarining innovatsion yondashuvi asosida kolaborativlik ko'nikmalarini rivojlantirish omillari.Ta'lim jarayonining dolzarb masalalari:muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman 20.05 2023 y.(236-239b)

2. Y.U.Egamberdiyeva . Boshlang'ich sinf o'quvchilarinig innovasion yondashuv asosida kolaborativlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoning samaradorligi. Namangan davlat unversiteti ilmiy axborotnomasi.15.12.2023y (674-678b)

3. SH.M.Mirziyoyev «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4391-sonli qarori 2019 yil 11 iyul.

4. Achilov Nurbek Norboy o'g'li (2020). Pedagogical and psychological fundamentals of formation of space imagination and creative ability in students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), Part II, 38-40.

5. „Umumiy pedagogika“-B.Sh.Shermuhammadov, Q.Qurbonova, U.Q.Maqsudov, M.A.Qochqorova, Z.M.Siddikova Farg'ona-2022,106-121

6. Baxtiyor oila" SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. „Hilol-nashr" Toshkent-2022